



QISSASI RABG‘UZIY – TURKIY NASRNING ILK NAMUNASI SIFATIDA

Qobulova Mubina Shokirbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIV asrda yashab ijod qilgan Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asari janr, til, uslub hamda badiiy mahorat nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Asarning diniy-ma’rifiy mohiyati, tarixiy shaxslar va qissalarning xalq orasida tarqalishiga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, “Qissasi Rabg‘uziy” asari turkiy nasrning ilk yirik namunasi sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: Nosiriddin Rabg‘uziy, Qissasi Rabg‘uziy, turkiy nasr, diniy qissa, islom tafakkuri, tarixiy-badiiy uslub, qissaxonlik an’anasi.

Abstract. This article studies the work "Qissasi Rabguziy" by Nasiriddin Rabguziy, who lived and worked in the 14th century, from the perspective of genre, language, style, and artistic skill. The religious and educational essence of the work, the influence of historical figures and stories on the spread of stories among the people, are highlighted. Also, the work "Qissasi Rabguziy" is considered the first major example of Turkish prose.

Keywords: Nasiriddin Rabguziy, Qissasi Rabguziy, Turkish prose, religious story, Islamic thought, historical and artistic style, storytelling tradition.

Kirish

O‘rta asr turkiy adabiyotining yirik vakillaridan biri bo‘lgan Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asari XIV asr boshlarida yaratilgan. Asar Muhammad payg‘ambar (s.a.v) hamda boshqa islomiy shaxslar hayoti va faoliyatini turkiy tilga ko‘chirish orqali diniy-ma’rifiy g‘oyalarni xalq orasida keng yoyishga xizmat qilgan. “Qissasi Rabg‘uziy” o‘zbek nasrining shakllanishida muhim poydevor bo‘lib xizmat qilgan[1, 21-b.].¹

¹ Rajabov A. Qissasi Rabg‘uziy va o‘zbek nasrining ilk manbalari. – Toshkent: Fan, 1983. – 125 b. [1] Rajabov A., Qissasi Rabg‘uziy va o‘zbek nasrining ilk manbalari, 21-b.



“Qissasi Rabg‘uziy” 1310-yilda Rabg‘uz shaharchasida yozilgan bo‘lib, unda Qur’oni karimda zikr qilingan 25 nafar payg‘ambar haqidagi qissalar bayon etiladi. Har bir qissa iymon, sabr-toqat, kechirimlilik, adolat kabi g‘oyalarni targ‘ib qiladi. Ushbu asar diniy mavzuda yozilgan bo‘lishiga qaramay, u badiiy jihatdan ham juda yuksak darajada yozilgan bo‘lib, o‘zbek nasrining ilk yirik namunasi hisoblanadi[2, 37-b.].²

Rabg‘uziy o‘z asarini sodda, xalqchil tilda yozgan. Unda Qur’oni karim oyatlari, hadislar, rivoyatlar asosida bayon etilgan voqealar badiiy tasvir vositalari bilan boyitilgan. Matnning har bir sahifasida muallifning didi, e‘tiqodi, xalqchil ruhda fikr yuritishi sezilib turadi.

“Qissasi Rabg‘uziy”da til sifati ikki asosiy yo‘nalishda ko‘rinadi:

1. Diniy-klassik lug‘at boyligi: arabcha, forsha so‘zlar, Qur’on va hadisdan iqtiboslar.
2. Xalqona nutq shakllari: og‘zaki xalq ijodi unsurlari, maqollar, iboralar.

Asarda hikoya shaklida bayon qilinadigan voqealar orqali xalq og‘zaki ijodidagi qissaxonlik usuli aniq ko‘zga tashlanadi. Jumladan, har bir qissaning kirish qismida muallif qisqa duo va niyat bildiradi, so‘ngra rivoyatni sodda va tushunarli qilib boshlaydi³[3, 112-b.]. “Qissasi Rabg‘uziy” o‘z davrida diniy-ta’limiy manba bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda u turkiy til va adabiyot tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Asar:

- o‘rta asrlar xalq ma’naviy hayotini o‘rganish,
- qadimgi turkiy nasr uslublarini tahlil qilish,
- diniy adabiyot va badiiy adabiyot munosabatlarini tadqiq etish uchun xizmat qiladi.

Shu o‘rinda asarning eng katta qissasi “Yusuf qissasi” ga biroz e‘tibor qarasak, ehtimoldan holi bo‘lmas edi. Adabiyot va din insoniyat ruhiyatining ikki muhim ustunidir. Yusuf surasi inson qalbini nurlantirsa, Yusuf qissasi adabiyotni go‘zallik

² G‘aniyeva M. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 320 b. [2] G‘aniyeva M., O‘zbek adabiyoti tarixi, 37-b.

³ Nosiriddin Rabg‘uziy. Qissasi Rabg‘uziy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1990. – 440 b. Rabg‘uziy N., Qissasi Rabg‘uziy, 112-b.



bilan bezaydi. Ularning har ikkalasi bir voqeaning turli ko‘rinishlarda aks etgan namunalaridir: biri — ilohiy haqiqat, ikkinchisi — badiiy talqin.

Yusuf surasi Qur’oni Karimning eng go‘zal suralaridan biri bo‘lib, unda Payg‘ambar Yusuf (a.s.)ning bolalikdagi tushidan boshlab, misrlik podsho huzuriga yetguniga qadar bo‘lgan hayot yo‘li, undagi sabr, Allohga bo‘lgan to‘liq ishonch yuksak ruhda ifodalangan. Suraning o‘ziga xos jihati shundaki, unda voqealar zanjiri uzviylikda, sodda lekin chuqur ma’naviy mazmunda bayon etiladi. Yusuf (a.s.)ning quduqqa tashlanishi, Zulayhoning fitnasi, zindon voqealari va oxir-oqibat Alloh tomonidan yuksaltirilishi — barchasi iymon, sabr va tavakkul timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Yusuf qissasini esa, adabiyot olamida Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Hofiz Sheroziy kabi buyuk adiblar bu voqeani sevgi, sadoqat va ruhiy izzat bilan boyitgan holda ifoda etganlar. Adabiyotda Yusuf — go‘zallik timsoli, Zulayho esa sadoqatli oshiq sifatida tasvirlanadi. Zulayhoning ichki kechinmalari, ko‘z yoshlari, armonli muhabbati orqali inson qalbining eng nozik hislarini aks ettiradi. Bu qissa orqali o‘quvchi nafaqat diniy saboqlarga, balki sevgi, fidoyilik, kechirimlilik singari umuminsoniy fazilatlarga oshno bo‘ladi. Bu ikki manba o‘rtasidagi asosiy farq ularning maqsadida mujassam: Yusuf surasi — Alloh kalomi, ya’ni ilohiy haqiqat bo‘lsa, Yusuf qissasi — inson tasavvuri, ya’ni badiiy ijod mahsulidir. Ammo ular bir-birini inkor etmaydi, aksincha, bir-birini boyitadi. Yusuf surasi va Yusuf qissasi — bu ikkisi yondashuv turlicha uslubda, ammo bitta maqsadda xizmat qiladi: insoniyatni go‘zallikka, poklikka, sabrga va tavakkulga chorlaydi. Din va adabiyot o‘rtasidagi bu mushtaraklik ularni bir-biriga yaqinlashtiradi va har ikkisini anglagan kishi uchun yanada teran ma’naviy ozuqa manbai bo‘ladi.

Xulosa

Nosiriddin Rabg‘uziy “Qissasi Rabg‘uziy” asari bilan nafaqat diniy-ma’rifiy tafakkurni rivojlantirdi, balki o‘zbek nasrining shakllanishiga mustahkam poydevor qo‘ydi. Uning xalqona, ravon va badiiy boy til uslubi bugungi o‘quvchi uchun ham ibratli namuna bo‘lib qolmoqda. Bu asar turkiy adabiy tafakkur taraqqiyotining muhim bosqichidir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rajabov A. Qissasi Rabgʻuziy va oʻzbek nasrining ilk manbalari. – Toshkent: Fan, 1983. – 125 b. [1] Rajabov A., Qissasi Rabgʻuziy va oʻzbek nasrining ilk manbalari, 21-b.
2. Gʻaniyeva M. Oʻzbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2004. – 320 b. [2] Gʻaniyeva M., Oʻzbek adabiyoti tarixi, 37-b.
3. Nosiriddin Rabgʻuziy. Qissasi Rabgʻuziy. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 1990. – 440 b. [3] Rabgʻuziy N., Qissasi Rabgʻuziy, 112-b.